

STRATEGIK SHERIKLIK VA KO‘P TOMONLAMA MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASH MASALALARI KO‘RIB CHIQLDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-avgust kuni mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo‘lib turgan Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidentining global sherikliklar bo‘yicha maxsus vakili Paolo Zampollini qabul qildi.



AQSH ma‘muriyati yuqori martabali vakili davlatimiz rahbariga Prezident Donald Trampning samimiy salomi va O‘zbekiston mustaqilligi kuni munosabati bilan tabriklarini yetkazdi.

Uchrashuvda O‘zbekiston bilan AQSH o‘rtasidagi strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada kengaytirish masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi.

Turli darajalarda samarali aloqalar davom etayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. Konstruktiv siyosiy muloqot rivojlanmoqda, faol parlamentlararo almashinuvlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan oyda Kongressda O‘zbekiston kuni doirasidagi tadbirlar o‘tkazildi, bu yil kuzda Kengaytirilgan strategik sheriklik muloqotining birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi.

Xavfsizlik sohasida, terrorizm, ekstremizm va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish borasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

AQSH an‘anaviy ravishda O‘zbekistonning muhim iqtisodiy hamkori hisoblanadi. 2024-yilda tovar ayirboshlash hajmi 15 foizga ko‘paydi. Loyihalar portfeli 11 milliard dollardan oshgan.

Joriy yil iyun oyida o‘tkazilgan Toshkent investitsiya forumida AQSHning 100 dan ortiq yetakchi kompaniyalari ishtirok etdi.

Mineral resurslar, aviatsiya, elektrotexnika, qishloq xo‘jaligi, raqamli texnologiyalar, moliya, innovatsiyalar, ta‘lim va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda kooperatsiya loyihalarini ilgari surish uchun katta salohiyat mavjudligi qayd etildi.

“C5+1” formati doirasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish muhim ekani ta‘kidlandi.

Bo‘ljak muloqotlar va qo‘shma tadbirlar rejasi ham ko‘rib chiqildi.

O‘ZA

Nuqtayi nazar

O‘ZBEKISTON – IORDANIYA: HAMKORLIK ALOQALARI YANGI BOSQICHDA



O‘zbekiston va Iordaniya xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik aloqalari uzoq tarixga ega, har ikki davlatni umumiy tarixiy meros, ko‘p asrlik diniy va madaniy almashinuv an‘analari birlashtiradi.

Iordaniyada madaniy yodgorliklar, ko‘hna shaharlar ko‘p. O‘zbekiston ham qadimiy Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon kabi tarixiy kentlari bilan mashhur. Iordaniya Yaqin Sharqda, O‘zbekiston esa Markaziy Osiyoda muhim siyosiy va iqtisodiy markazdir.

Rasmiy Amman siyosiy jihatdan barqaror, tarixiy va madaniy merosga boy. Joylashuvi va tashqi siyosati uni mintaqada muhim o‘rinda turadigan mamlakatga aylantirgan. Iordaniya zamonaviy taraqqiyotga intilib, xalq farovonligini ta‘minlash yo‘lidan bormoqda.

1993-yilda davlatlarimiz o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan bo‘lsa, 1994-yil iyunida Toshkentda Iordaniya elchixonasi faoliyat boshlagan. So‘nggi yillarda esa ikki tomonlama aloqalar yangi sur‘atga ega bo‘ldi.

Davomi 2-betda

Islohotlar samarasi

O‘NTA TUMAN VA SHAHAR KAMBAG‘ALLIK HAMDA ISHSIZLIKDAN XOLI HUDUDGA AYLANADI

Shu kunlarda “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan bayram shukuh mamlakatimiz bo‘ylab kezib yuribdi. Bu sanani butun xalqimiz ko‘tarinki kayfiyatda kutib olishi bejiz emas. Zero, istiqlol ezgu an‘analarimiz, tuyg‘ularimizga jo‘shqinlik bag‘ishlaydi. Vatanning qadr-qimmatini yanada teran anglab yetishga undaydi.

Mustaqillik tufayli erkin, farovon jamiyat, demokratik davlat barpo etish yo‘lida shaxdam odimlab borayotgan mamlakatimizda asrga tatigulik o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Buni jamiyatning barcha soha va tarmoqlaridagi muhim ko‘rsatkichlar misolida yaqqol his etib turibmiz.

Aholi bandligini ta‘minlash ana shunday muhim yo‘nalishlardan. Ayniqsa, so‘nggi sakkiz yildagi izchil islohotlar natijasida bu tizim yangilanishlarga yuz tutdi. Ijtimoiy davlat maqomini olgan yangi O‘zbekistonimizda bu jahbada tizimli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Xususan, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish orqali ishsizlikni kamaytirish, oilalar farovonligini oshirish bo‘yicha ko‘plab amaliy ishlar bajarilyapti. Jumladan, bandlik va mehnat munosabatlari sohasiga oid huquqiy asoslar zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirilyapti.

Jumladan, davlat fuqarolarning bandligini ta‘minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish choralari ko‘rishi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yildi.

Davomi 2-betda

ISTIQLOL BERGAN BUYUK IMKONIYATLAR

INSON QADRINI YUKSALTIRISH, HUQUQ VA MANFAATLARINI TA‘MINLASHDA MUHIM OMIL BO‘LMOQDA

Mustaqillik bu — huquq, har bir xalq uchun eng oliy qadriyat va ulug‘ ne‘mat. Chunki har bir xalq, har bir millat faqat mustaqil bo‘lgandagina o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, kelajak taraqqiyot yo‘lini tanlashi va jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlari, ilmiy, madaniy va ma‘naviy merosiga tayagan holda farzandlari kelajagi yo‘lida ozod va obod vatan barpo etish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin. Bu shunchaki gap emas, balki uzoq yillar davomida yuritilgan mustamlakachilik siyosatining asl maqsadiga guvoh bo‘lgan, uni ko‘rgan va ko‘pchilik qatori Vatan mustaqilligini intilq bilan kutgan xalqimizning xulosasidir.



Mana o‘ttiz to‘rt yildirki, O‘zbekistonimiz o‘zining milliy suverenitetini mustahkamlab, davlatchilik asoslarini takomillashtirdi, xalqimizning tinch va farovon hayot kechirishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratdi. Yurtimizda adolatlilik jamiyat qurish, inson manfaatlarini ustuvor qilish, inson qadriini ulug‘lash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Mustaqil milliy davlatchiligimizning huquqiy poydevori sanalgan Asosiy qonunimiz — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasi tarixan juda qisqa muddatda ishlab chiqildi va qabul qilindi. Unda mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining asosiy tamoyillari aniq ifodalab berildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo‘linishi eng muhim tamoyil sifatida belgilandi. Xullas, mustaqillikning dastlabki yillaridan uning mustahkam huquqiy poydevori yaratildi.

Davomi 3-betda

Ko‘ngilga yaqin gaplar

NAVQIRON YOSHIMGA QAYTSAYDIM AGAR...



Umr daftarimning har yangi sahifasini ochganimda, o‘tgan kunlarimga nazar tashlab, xayolga tolamam. Yaratganga shukrlar bo‘lsinki, umrimning kamolga yetgan yillari ona Vatanimiz ozodlikka erishgan, o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilab olgan davrga ta‘g‘ri keldi. Istiqlol bergan ne‘matlarni, uning sharofati bilan erishgan yutuqlarimizni ko‘rib, qalbim cheksiz g‘ururga to‘ladi. Ammo ich-ichimdan bir o‘kinch va armon bosh ko‘tarishi ham bor gap. Bugungi yoshlarga havas bilan qaraganimda, ularga yaratilayotgan sharoitlarni ko‘z oldimga keltirganimda, beixtiyor navqiron yoshimga qaytsaydim agar deb yuboraman.

Davomi 6-betda

Tashabbuslar qanotida

RAQAMLI TIBBIYOT

XALQIMIZNING UZOG‘INI YAQIN, OG‘IRINI YENGIL QILADI

Xalqimizda “Sog‘liq — oltindan qimmat” degan hikmatli naql bor. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, mamlakat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bilim va sog‘lom avlodidir. O‘tgan sakkiz yilda “Inson qadri uchun” tamoyili doirasida sog‘liqni saqlash tizimini tubdan yangilash, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va xalqimiz manfaatiga xizmat qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Joriy yil 19-avgust kuni Prezidentimiz sog‘liqni saqlash tizimini transformatsiya qilish va tibbiy yordam sifatini oshirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishib, soha uchun uzoq istiqbolga qaratilgan vazifalarni belgilab berdi. Xususan, klinik protokollarni xalqaro standartlarga moslashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, bosqichli va samarali tibbiy yordam tizimini shakllantirish, tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarida akademik va dual imkoniyatlarni kengaytirish hamda xalqaro hamkorlikda yuksak malakaga ega kadrlar tayyorlash shular jumlasidan.

Davomi 5-betda

O‘ZBEKISTON — IORDANIYA: HAMKORLIK ALOQALARI YANGI BOSQICHDA

ZAMONAVIY TIZIMDA
DAVLAT XIZMATLARINI
KO‘RSATISH — ASOSIY MAQSADIMIZ

Davlat xizmatlari markazlari tashkil etilganda bu tizimni yurtdoshlarimiz katta mamnuniyat bilan qabul qilgandi. Chunki ilgari aholiga bu sohalarida xizmat ko‘rsatish talab darajasida emasdi. Odamlar ishini bitirish uchun bir nechta idora orasida qatnab, ovora bo‘lardi. Shu bois, bu yo‘nalishda zamonaviy tizimga ehtiyoj katta edi.

Bugun davlat xizmatlari markazlari orqali 467 turdagi hamda yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali 771 turdagi xizmatlar ko‘rsatilayapti. Endi fuqaro davlatga emas, davlat fuqaroga xizmat qiladi degan tamoyil keng amal qilmoqda. Hozir odamlar navbat olib, ishini bitirib, davlat xizmatlari markazidan chiqib ketgungacha 17-18 daqiqa sarflaydi. Maqsadimiz — ushbu raqamni yanada qisqartirish. Bu borada ham tegishli ishlar bajarilmoqda.

Jarayon soddalashtirilishi natijasida fuqarolar onlayn xizmatga o‘tmoqda. Bu aholining axborot texnologiyalari sohasidagi bilimiga ijobiy ta’sir qilishi barobarida xizmatlardan oson foydalanishi uchun har tomonlama qulaylik yaratmoqda.

Ayni paytda mazkur ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida davlat xizmatini mahalla darajasiga tushirish bo‘yicha tizimli ishlar qilinayapti. Mahalla idorasida joylashgan infokiosklar orqali shunday xizmatlar ko‘rsatilayapti. Bu aholining hayot sifatini oshirish, investitsiya va ischlanlik muhitini yaxshilash hamda biznesni rivojlantirish imkonini beradi.

Mana shunday muhim va zamonaviy sohada ishlayotganim katta yutug‘imdir. Albatta, har bir inson muayyan sohada ishlar ekan, avvalo, xalqqa munosib xizmat qilishga



Bahodir XUDOYBERDIYEV,
Surxondaryo viloyati
Angor tumani davlat xizmatlari
markazi direktori,
“Shuhrat” medali sohibi

intiladi. Qolaversa, shu mehnati ortidan halol rizq topib, ro‘zg‘or tebratadi, farzandlar tarbiyalab, baxt-iqbolini ko‘rish orzusi bilan yashaydi.

Shunday kamtarona faoliyati davlati va xalqi tomonidan e’tirof etilib, Vatanning yuksak mukofotiga loyiq ko‘rilishi insonga cheksiz quvonch hadya etar ekan. E’tibor va e’tirof uchun tashakkur, buni oqlash uchun bor bilim va salohiyatimni ishga solib, xalqimizga sidqidildan xizmat qilaman.



Nargiza SALOMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

Birgina joriy yilda diplomatik pasport egalari uchun viza rejimini bekor qilish to‘g‘risidagi bitim hamda Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 2025-2027-yillarga mo‘ljallangan qo‘shma hamkorlik dasturi imzolangani o‘zaro munosabatlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mamlakatimizning Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro tuzilmalar doirasida ko‘p tomonlama formatlardagi ishtiroki O‘zbekiston — Iordaniya munosabatlarni chuqurlashtirish uchun qo‘shimcha platforma yaratmoqda.

“Diplomatik munosabatlar tarixidagi ilk oliy darajadagi tashrif ikki tomonlama hamkorlikda yangi bosqichni boshlab berish bilan birga mamlakatlarimiz o‘rtasida uzilmas rishtalar o‘rnatilishiga kuchli turtki beradi. Erishilgan amaliy natijalar esa o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini va sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish hamda gumanitar aloqalarni mustahkamlash uchun sharoit yaratadi.

Ikki mamlakatdagi islohotlar strategiyalari ham o‘xshash. Poytaxt shaharlar o‘rtasida muntazam aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yilishi va vizasiz rejim joriy qilinishi ishbilarmonlik aloqalari va o‘zaro sayyohlar oqimining ko‘payishiga xizmat qiladi.

Ta’lim sohasida ham hamkorlik ko‘lami kengayib bormoqda. Iordaniyada tahsil olayotgan o‘zbekistonlik talabalar soni ortyapti. O‘z navbatida, O‘zbekiston axborot texnologiyalari, tibbiyot va qishloq xo‘jaligi kabi sohalarida almashinuv dasturlarini taklif qilish orqali iordaniyalik talabalar uchun imkoniyatlar yaratmoqda. Shubhasiz, bu sa’y-harakatlar nafaqat inson kapitalini rivojlantirish, balki xalqlarimiz o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga ham kuchli turtki beradi.

So‘nggi yillarda har ikki mamlakatda ham aholi barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, global muammolarga qarshi kurashda madaniy an‘analarni saqlashni qadrlab, o‘z yetakchilarini faol qo‘llab-quvvatlamogda.

O‘zbekiston ochiqlik va ko‘p vektorli tashqi siyosat yo‘nalishini namoyish etmoqda. Oxirgi yillarda Yaqin Sharq mamlakatlari bilan o‘zaro aloqalarimiz faol rivojlanyapti. Fikrimiz isbotini Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashiga a‘zo mamlakatlar bilan 2020-2023-yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb besh barobar oshgani misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

O‘zaro tovar ayirboshlash qiymati 2024-yilda qariyb 4,6 million AQSH dollarini tashkil etdi. Joriy yilning birinchi yarmida bu ko‘rsatkich 4,3 million dollar bo‘lgani savdo-iqtisodiy aloqalar kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Iordaniya O‘zbekistonga farmatsevtika, kimyo mahsulotlari, asbob-uskuna va mashinalar yetkazib berayotgan bo‘lsa, O‘zbekiston mis, quritilgan meva, yong‘oq va to‘qimachilik mahsulotlarini eksport qilmoqda.

Bu hali hammasi emas. Tadbirkorlar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalarni yo‘lga qo‘yish, tarmoq ko‘rgazmalari, biznes-forumlar va savdo missiyalarini tashkil etish bo‘yicha ham O‘zbekiston — Iordaniya ishbilarmonlar kengashini tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Iordaniya, shuningdek, qulay geografik joylashuvidan O‘zbekiston tovarlarining Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika bozorlariga chiqishi uchun xab sifatida foydalanishni taklif qilmoqda.

Mamlakatlarimiz o‘rtasida turizm sohasidagi hamkorlikni izchil rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Registon maydoni kabi tarixiy merosimiz iordaniyalik sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi. Ulardagi O‘lik dengiz va Rum Vodi hududi esa o‘zbeklar uchun noyob tajribalarni taqdim etadi.

Bugun o‘zaro ishonch, hurmat va teng huquqlilik tamoyillariga asoslangan munosabatlar o‘tgan 32 yilda o‘zining yuqori pog‘onasiga ko‘tarildi deyish mumkin. Ikki davlat o‘rtasidagi uzoq muddatli va keng qamrovli sheriklik bundan keyin ham xalqlarimiz manfaatli yo‘lida sezilarli kengayib, chuqurlashib boraverishiga hech qanday shubha yo‘q.

Binobarin, Prezidentimizning taklifiga binoan Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynning shu yil 25-26-avgust kunlari mamlakatimizga davlat tashrifi ikki tomonlama aloqalarni butunlay yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Xususan, Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan muzokaralar chog‘ida siyosiy muloqot va madaniy-gumanitar almashinuvni yanada rivojlantirish, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Ikki tomonlama savdo ko‘rsatkichlarini karrasiga ko‘paytirish, qo‘shma investitsiya loyihalari va savdo shartnomalarini amalga oshirishga tayyorlik tasdiqlandi. Kimyo va to‘qimachilik sanoati, “aqlii” qishloq xo‘jaligi, geologiya, sog‘liqni saqlash va farmatsevtika, turizm va boshqa tarmoqlarda kooperatsiyani kengaytirishga kelishib olindi.

Ikki mamlakatning yetakchi kompaniya va ishlab chiqaruvchilari ishtirokida O‘zbekiston — Iordaniya biznes forumi o‘tkazilishi ishbilarmon doiralarda o‘rtasida uzoq muddatli sheriklik aloqalarini o‘rnatishga xizmat qiladi.

Samarali muzokaralar yakunida qabul qilingan Sheriklik munosabatlarni mustahkamlash to‘g‘risida qo‘shma bayonot hamda 15 ta ikki tomonlama hujjat o‘zaro sheriklik munosabatlarni kengaytirishda yangi istiqbollarni ochib berish, pirovardida davlatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni sifat va mazmun jihatidan boyitgan holda, o‘zaro manfaatli hamkorligimizni yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga zamin yaratadi.

Davlat tashrifi doirasida Iordaniya Podshohining Prezidentimizni “An-Nahda” (Renessans) ordeni bilan taqdirlagani ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish borasidagi umumiy sa’y-harakatlarning munosib e’tirofi bo‘ldi, desak yangilishmaymiz. O‘z navbatida, bu O‘zbekiston va Iordaniya xalqlari o‘rtasidagi mustahkam do‘stlik ramzi hamdir.

Mazkur tarixiy tashrif va samarali muzokaralar natijasida mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar yangi sheriklik darajasiga ko‘tarildi deyishga barcha asosimiz bor. Zotan, tashrif chog‘ida yetakchilar siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni har tomonlama rivojlantirishga kelishib oldi.

Diplomatik munosabatlar tarixidagi ilk oliy darajadagi tashrif ikki tomonlama hamkorlikda yangi bosqichni boshlab berish bilan birga mamlakatlarimiz o‘rtasida uzilmas rishtalar o‘rnatilishiga kuchli turtki beradi. Erishilgan amaliy natijalar esa o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini va sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish hamda gumanitar aloqalarni mustahkamlash uchun sharoit yaratadi.

O‘NTA TUMAN VA SHAHAR KAMBAG‘ALLIK HAMDA
ISHSIZLIKDAN XOLI HUDUDGA AYLANADI

Ziyodbek YO‘LDOSHEV,
Toshkent viloyati kambag‘allikni
qisqartirish va bandlik
bosh boshqarmasi boshlig‘i

Boshlanishi 1-betda

Ushbu chora-tadbirlar natijasida O‘zbekistonda mehnatga layoqatli aholi o‘rtasida ishsizlik darajasi 2020-yildagi 10,5 foizdan 2025-yil birinchi yarmida 5,1 foizgacha pasaydi.

Ayni paytda 2030-yilgacha ishsizlikni xalqaro e’tirof etilgan daraja — 5-6 foizdan oshirmaslik bo‘yicha dolzarb vazifalar belgilab olinib, shu asosda ishlar bajarilayapti. Bugungi geosiyosiy o‘zgarishlar, o‘zaro ishonch inqirozi ro‘y berayotgan murakkab bir davrda bunday maqsad va rejalarni ro‘yobga chiqarish oson emas. Ammo inson qadri barcha narsadan ustun qo‘yilgan yangi O‘zbekistonda bu borada qat’iy siyosiy iroda shakllangani, amaliy ishlar tizimli asosda tashkil etilayotgani muhim natijalarga zamin yaratmoqda.

Xususan, har bir mahalla bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar belgilandi. Aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan “mahalla loyihasi” dasturi doirasida ajratilgan kredit resurslari banklar va hududlar kesimida taqsimlandi. Loyiha ishlab chiqish, kredit ajratish, aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha tuman banki rahbariga oyma-oy samaradorlik ko‘rsatkichi qo‘yildi.

Umuman olganda, 2025-yil bandlikni ta’minlash va kambag‘allikni kamaytirishda eng muhim va hal qiluvchi yil bo‘lishi belgilanib, shu maqsad yo‘lida katta-katta loyihalar hayotga tatbiq etilyapti. Xususan, bu yil 5 million 200 ming kishini band qilib, 1,5 million odamni kambag‘allikdan chiqarish, 42 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etib, eksportni 30 milliard dollardan oshirish hisob-kitob qilingan.

Bu yo‘nalishda joriy yilning o‘tgan davrida Toshkent viloyatida ham keng qamrovli ishlar bajarildi. Aholiga qulay sharoit yaratish, infratuzilma obyektlarini qurish va ta’mirlash borasida budgetdan ajratilgan mablag‘dan foydalanish bo‘yicha barcha chora-tadbirlar aniq belgilab berilgani faoliyatimizni izchil



va samarali tashkil etishda asosiy dasturilamal bo‘lmoqda.

Shu asosda joriy yilning o‘tgan davrida 7590 ta kambag‘al oilaga 1518 rahbar xodim birlashtirilib, 6 oy mazkur oilalarning daromadini tiklash va kambag‘allikdan chiqarish choralari ko‘rildi. 38 ming 194 oila “Kambag‘al oilalar reyestri”ga kiritilib, 3 toifaga ajratildi va shu asosda ular bilan ishlanyapti. Ushbu oilalarga individual rejalar asosida 148 mingta xizmat va yordam turi ko‘rsatildi. Natijada oilalar barqaror daromad manbaiga ega bo‘ldi. Ishsizlar mehnat bozorida talab yuqori kasblarga o‘qitildi. Ijtimoiy himoya va tibbiy ko‘makka

muhtojlarga tegishli tartibda ko‘mak berildi. 400 oilaning uy-joyi ta’mirlandi.

Mamlakatimizda yuritilayotgan bandlik siyosatining ustuvor yo‘nalishi odamlarni faqat ishli qilishgina emas. Oilalar farovonligini doimiy oshirib borish, daromadini ko‘paytirish, sodda qilib aytganda, xalqimizni boy qilishdek ezuq maqsadni ko‘zlaganmiz. Zero, xalqi o‘ziga to‘q bo‘lgan yurtning qudrati ham yuksak bo‘ladi. Buni rivojlangan mamlakatlar tajribasida ko‘rib turibmiz.

Ushbu maqsadga erishish uchun aholiga tadbirkorlik yo‘lini chuqur o‘rgatish, har bir imkoniyatdan unumli foydalanish orqali daromadini ko‘paytirish choralari ko‘rilmoqda. Xususan, xonadonlarning yillik daromadini 60-70 million so‘mga yetkazish maqsadida aholiga “loyiha paketlari” yetkazib berilyapti. Misol uchun, Ogqo‘rg‘on tumanidagi Hamid Olimjon mahallasida yashovchi 12 kishiga 325 million so‘mlik kredit ajratilib, hududdan oqib o‘tuvchi zovurda o‘rdak parvarishlash yo‘lga qo‘yildi.

Shu ta’xlit aholi bandligini ta’minlash borasidagi chora-tadbirlar ham tizimli yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, bu borada oilaviy tadbirkorlik, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, “Biznesga birinchi qadam”,

Islohotlar samarasi

“Mahalla loyihasi” kabi dasturlar doirasidagi ishlar kutilgan samarani bermogda. Joriy yilning o‘tgan davrida ushbu dasturlar doirasida 982 milliard so‘mlik kredit hisobidan 31,8 mingdan ortiq kishining bandligi ta’minlandi. Bu 2024-yilning mos davri bilan solishtirganda 217 foiz ko‘p demakdir.

Joriy yilning o‘tgan davrida 970 gektar yerda 91 ta namunaviy loyihani amalga oshirish uchun 82 ta agregator jalb qilindi. Natijada 2463 ta dehqon xo‘jaligi tashkil etilib, aholi daromadi oshirildi. Og‘ir toifaga kiritilgan 100 ta mahalladagi 83 ta sug‘orish loyihasi bitkazilishi natijasida 23 ming xonadonda tomorqadan to‘liq foydalanishga erishildi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



“

90 ta mahalla sanoat, 318 tasi xizmat ko‘rsatish, 476 tasi qishloq xo‘jaligi, 272 tasi boshqa yo‘nalishlarga ixtisoslashtiriladi. Ohangaron, Qibray, Toshkent, Chinoz, Yangiyo‘l, Ogqo‘rg‘on, Zangiota, O‘rta Chirchiq va Piskent tumanlaridagi mahallalarning 56 tasini limonchilikka, 46 tasini uzumchilikka, 18 tasini malinachilikka, 10 tasini karam va bulg‘or qalampiri yetishtirishga hamda 12 tasini ko‘chatchilikka ixtisoslashtirish choralari ko‘riladi.

dasturiga asosan investitsiya loyihalari, tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi va qurilish sohasida doimiy ish o‘rinlari ochilib, 412 ming kishining bandligi ta’minlanadi.

Sharoiti og‘ir mahallalardagi sug‘orish quduqlari va nasoslariga quyosh panellari o‘rnatildi. 93 ta mahallada elektr energiyasi ta’minoti, 86 ta mahallada ichki yo‘llarni qurish loyihalari yakuniga yetkazilib, foydalanishga topshiriladi.

Bundan tashqari, 90 ta mahalla sanoat, 318 tasi xizmat ko‘rsatish, 476 tasi qishloq xo‘jaligi, 272 tasi boshqa yo‘nalishlarga ixtisoslashtiriladi. Ohangaron, Qibray, Toshkent, Chinoz, Yangiyo‘l, Ogqo‘rg‘on, Zangiota, O‘rta Chirchiq va Piskent tumanlaridagi mahallalarning 56 tasini limonchilikka, 46 tasini uzumchilikka, 18 tasini malinachilikka, 10 tasini karam va bulg‘or qalampiri yetishtirishga hamda 12 tasini ko‘chatchilikka ixtisoslashtirish choralari ko‘riladi. 500 dollardan kam daromad topadigan migrantlar yurtga qaytarilib, doimiy ish o‘rinlari va tadbirkorlik sohalarida bandligi ta’minlanadi.

Ana shunday keng qamrovli chora-tadbirlar hisobiga yil yakuniga qadar kambag‘allik va ishsizlik darajasini yanada qisqartirishga erishiladi. 10 ta tuman va shahar kambag‘allik va ishsizlikdan xoli hududga aylanadi.

BUYUK IMKONIYATLAR

INSON QADRINI YUKSALTIRISH, HUQUQ VA MANFAATLARINI TA’MINLASHDA MUHIM OMIL BO’LMOQDA



Mirzo Ulug‘bek ABDUSALOMOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudi raisi,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
yurist

Boshlanishi 1-betda

Faxr-iftixor manbai

Mustaqillik xalqimizga o‘z taqdiriga o‘zi egalik qilish, milliy qadriyatlarini asrab-avaylash va erkin taraqqiyot yo‘lini tanlash imkonini berdi. Boy berilgan milliy davlatchiligimizni tiklash, xalqimizning erkinligi va suvereniteti ramziga aylandi. Mustaqillik kuni — tinchlik, osoyishtalik va farovon hayotimiz zaminini, xalqimizni birlashtiruvchi, umumiy faxr va iftixor manbai bo‘lgani uchun ham tom ma’nodagi xalqimizning eng ulug‘, eng aziz umumxalq bayramiga aylandi.

Bir narsani ochiq tan olish kerak. Hech kimga qaram bo‘lmagan, hech kimdan kam bo‘lmagan mustaqil davlatni barpo etish hech bir mamlakatda oson kechmagan. Ayniqsa, yonida “katta og‘a” bo‘lish xohishida yurgan davlatlar o‘zining imperiyaparastlik siyosatidan voz kechmagan bo‘lsa, buni tasavvur etish qiyin emas.

Shu ma’nodagi O‘zbekiston mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab boshqaruvning ma’muriy-buyruqbozlik usullaridan voz kechib, davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich isloh qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Biroq o‘tish davrida turli obyektlar, subyektiv sabab va qiyinchiliklar tufayli davlat oldidagi muhim vazifalarning ijrosini ta’minlashda ko‘pgina muammolarga duch kelindi. Malakali kadr va mutaxassislar yetishmasligi, tafakkurimiz oqsoqligi, vaziyatning murakkabligi, eng muhimi, yetarli tajribaga ega bo‘lmaganimiz ishimizga har qadamda to‘g‘onoq bo‘lganini ham xolisona tan olish kerak.

Shukrki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi tufayli O‘zbekistonning yangi davriga asos solindi. Darhaqiqat, davlatimiz rahbarining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asari muqaddimada bayon etilganidek, “Yangi O‘zbekistonni barpo

etgan holda ishlab chiqilgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining amalga oshirilishi jamiyatimizda tinchlik, do‘stlik va hamjihatlik muhitini kuchaytirish, inson qadri, huquq va manfaatlarini ta’minlash, mintaqamizda yaxshi qo‘shnchilik aloqalarini yanada rivojlantirish, dunyo mamlakatlari bilan faol hamkorlik qilish, Vatanimizning xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini yuksaltirishda beqiyos tayanch bo‘lmoqda.

Mustaqillik xalqimizga taqdim etgan eng buyuk ne’matlardan biri tinchlikdir. Tinchlik bor yerda taraqqiyot, yangilanish va farovonlik bo‘ladi. Zero, mustaqil iqtisodiy siyosat yuritadigan, milliy manfaatlarini himoya qila oladigan davlat barhayotidir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ham mustaqillik mevasidir. Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, xalqimizning turmush sifatini oshirish doirasida amalga oshirilayotgan ko‘lami keng, samaralari beqiyos ishlar bunga yorqin dalildir.

Shu bois, har birimiz istiqlolni asrab-avaylash, uning qadriga yetish va kelajak avlodlarga mustahkam meros qilib qoldirish uchun mas’ulmiz.

Mustaqillik nafaqat milliy suverenitetimiz kafolati, balki tinch va farovon hayotimizning poydevori hamdir.

Yangi O‘zbekistonning yuksak nufuzi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mustaqillik g‘oyasini hayotga tatbiq etishda “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasini ilgari surdi. Bu jarayonda inson qadriini yuksaltirish, huquq va erkinliklarini ta’minlash siyosatimizning bosh maqsadiga aylandi.

Shuningdek, tashqi siyosatda ham yangi yo‘nalish ochildi: qo‘shni mamlakatlar bilan do‘stlik va hamkorlik mustahkamlandi, dunyo miqyosida O‘zbekistonning nufuzi ortdi.

Jumladan, 2016-2025-yillarda quyidagi asosiy islohotlar amalga oshirilganini e’tirof etish o‘rinli: 2016-2017-yillarda xalq bilan muloqot va ochiqlik siyosati. Xalq qabulxonalarini va Virtual qabulxona faoliyatini yo‘lga qo‘yildi, fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilish imkoniyati ancha kengaydi.

2017-2019-yillarda iqtisodiy islohotlar. Milliy valyutaning erkin konvertatsiyasi joriy etildi, biznes va tadbirkorlikka keng imkoniyatlar yaratildi, soliq tizimi soddalashtirildi.

2019-2021-yillarda sud-huquq tizimi isloh qilindi, inson huquqlari va adolatni ta’minlashda yangi institutlar ishga tushirildi. Ta’lim va sog‘liqni saqlash sohaslarida davlat dasturlari qabul qilindi.

2021-2023-yillarda Yangi O‘zbekiston g‘oyasi asosida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ishlab chiqildi, davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalar joriy etildi, ekologik

Dadil qadamlar

Xalqimizning xohish-irodasi bilan umumxalq referendumida yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizga muvofiq, O‘zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat prinsiplari asosida respublikada o‘z milliy davlatchiligi rivojlantirish va mustahkamlash yo‘lidan dadil odamlamoqda.

Shu ma’nodagi bugungi global siyosiy-huquqiy muhitda demokratik davlatlarda bu jarayonlarda konstitutsiyaviy nazorat organlarining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Konstitutsiyaviy sudlar demokratik huquqiy davlatning institutsional poydevori sifatida faoliyat yuritib, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, qonun ustuvorligi va davlat hokimiyati organlari o‘rtasidagi to‘g‘ri va muvozanatli munosabatlarni ta’minlashda hal qiluvchi vazifalarni amalga oshiradi. Ular nafaqat milliy huquqiy tizim kafolatçisi, balki xalqaro huquqiy hamjamiyatda adolat, barqarorlik va inson qadriini e’zozlash kabi umuminsoniy qadriyatlarining amalga oshirishiga xizmat qiluvchi muhim institutlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayonida inson qadriini yuksaltirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali ta’minlash, adolati sud-huquq tizimini shakllantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiya yurtimizda konstitutsionalizmni mustahkamlash yo‘lida yangi tarixiy bosqichni boshlab berdi. Unda Konstitutsiyaviy sudning maqomi, mustaqilligi, faoliyatining asosiy prinsip va vakolatlari aniqlash va ochiq ifoda etilib, mazkur organning inson huquqlarini himoya qilish va huquqiy demokratik davlat barpo etishdagi roli yanada yuksak darajaga ko‘tarildi.



Ma’lumki, insoniyat ko‘p asrlar burun ham jamiyatda konstitutsiyaga monand asosiy bir hujjatga doim ehtiyoj sezgan. O‘sha hujjatga barcha fuqarolarning itoatda yashashi jamiyat tinchligi, osoyishtaligi va ravnaqning muhim sharti deb qaralgan.

Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Sohibqiron Amir Temurning o‘z davrida muhim qo‘llanma hisoblangan “Temur tuzuklari”da esa davlatning siyosiy faoliyatidagi yo‘l-yo‘riqlar aks etgan.

Yangi O‘zbekistonning yangilangan xalqchil Konstitutsiyasi, hech shubhasiz, dunyo konstitutsiyaviy amaliyoti tarixida konstitutsiyaviy islohotlarning samarasi ro‘yobga chiqqan siyosiy-huquqiy asos — dono va ahil xalqimizning qat’iy xohish-irodasi ifodalangan, noyob va muhim huquqiy hujjat sifatida alohida e’tirof etiladi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning chinakam tashabbuskori va muallifi xalqimizdir.

Referendumga qadar Konstitutsiyamizning yangi tahriri loyihasiidagi norma va prinsiplar mazmun-mohiyati va mamlakatimiz rivojidagi ahamiyati yuzasidan keng miqyosda umumxalq muhokamasi tashkil etildi. Jarayonda yurt ravnaqi va kelajagi uchun beqaror bo‘lmagan yoshu keksaning faol ishtirok etishi natijasida yangi tahrirdagi Konstitutsiyada aholining barcha qatlamlari manfaatlari o‘z aksini topdi. Natijada har bir O‘zbekiston fuqarosi ishonch bilan “Bu — mening Konstitutsiyam!” deb aytay oladigan darajadagi noyob hujjat vujudga keldi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning muhim jihati uning barcha aholi qatlamlari manfaatlari hamda jamiyatdagi xilma-xil qarashlarni o‘zida mujassam etganidir.



Xalqimizning roziligi — bosh maqsad

Sohibqiron Amir Temur bobomizning “davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukhi, qudrati va tarkibi yo‘qoladi”, degan so‘zlari bevosita Asosiy qonunda aks etgan eng muhim jihat — Konstitutsiya va qonunning ustunligi konstitutsiyaviy prinsipining ahamiyati va o‘rni belgilab beradi.

Konstitutsiyaviy islohotlar natijasida Konstitutsiyaviy sudning vakolatiga taalluqli masalalar doirasi kengaydi va uni ko‘rib chiqish mexanizmlari, konstitutsiyaviy odil sudlovni amalga oshirish kafolatlari yanada kuchaytirildi.

Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiya va qonun ustunligi prinsipini ta’minlash yo‘nalishida o‘zining sud majlislarida Konstitutsiyaga muvofiqlikni aniqlash va rasmiy sharh berish yuzasidan qaror va ajrimlar qabul qilish faolligi oshdi.

Konstitutsiyaviy sud tomonidan 411 ta normativ-huquqiy hujjat, shundan 109 qonun (10 xalqaro shartnoma), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘nlab farmon va qarorlari, farmoyishlari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning tegishli qarorlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qator qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Bosh prokuror buyruqlarining Konstitutsiyamizga mosligi o‘rganilib, tahlil qilindi. Konstitutsiyaviy sudga kelib tushgan normativ-huquqiy hujjatlar tegishli loyihalari yuzasidan o‘ttizdan ortiq takliflar berildi.

2024-yilda Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili Oliy Majlis palatalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdim etadigan mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonunchilikning holati to‘g‘risida Axborotni ikkinchi marotaba ochiq sud majlisida ko‘rib chiqildi. Axborotda qonunchilikni kuchaytirish bo‘yicha aniqlangan o‘n beshta yo‘nalishda o‘n oltita taklif va tavsiya yuborildi.

Bu kabi konstitutsiyaviy mexanizmlar tom ma’nodagi insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash bo‘yicha davlatning oliy maqsadiga erishish, xalqimizni rozi qilish borasida birga harakat qilishga undamoqda.

2024-yil davomida Konstitutsiyaviy sudga 1858 murojaat kelib tushgan. Shundan olti yuzga yaqini Konstitutsiyaviy sudga bevosita yuborilgan. Yuzdan ortiq fuqaro va yuridik shaxslar vakillarining Konstitutsiyaviy sud sudya va ekspertlari shaxsiy qabuli uyushtirilgan. Murojaatlarning tahlili shuni ko‘rsatmoqda, Konstitutsiyaviy sudga murojaatlar ko‘p hollarda Konstitutsiya, qonunlar normalaridan tashqari qonunosti hujjatlari yuzasidan, shuningdek, umumiy yurisdiksiya sudlaridagi ishlar bo‘yicha qarorlarning Konstitutsiyaga muvofiqligi, qonunchilik yuzasidan kelgan.

Keyingi yillarda Konstitutsiyaviy sud faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi ham yaxshi samara bermoqda. Jumladan, Konstitutsiyaviy sudning rasmiy saytida yo‘lga qo‘yilgan “Fuqarolarning onlayn qabuli” telegram messengeri orqali oldindan muddati aniq haftalik va oylik jadvallar asosida fuqarolar bevosita sudya va ekspertlarga videoqo‘ng‘iroq qilib, onlayn tarzda o‘z murojaatiga kerakli tushuntirishlarni olmoqda. Onlayn qabulning yo‘lga qo‘yilishi fuqarolarga respublikamizning istalgan hududidan bevosita murojaat qilib, o‘zlarini qiziqtirgan savollarga sudya, ekspert va mutaxassislardan to‘laqonli javob olishga xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsadimiz xalqimizni rozi qilish, shuning uchun har bir davlat organi o‘z zimmasidagi vazifani siddiqdildan bajarishi, davlat va jamiyat rivoji, aholi uchun barcha sharoitlarni yaratish rahbarlarning eng ustuvor vazifasi bo‘lishi kerakligini doim ta’kidlab keldi. Islohotlarimiz, har bir xayrli ish ortida,

albatta, insonlar dardiga darmon bo‘lish, ularning muammolariga o‘z vaqtida ijobiy yechim topish, hayot sifatini yaxshilashdek ezgu maqsad bor.

Konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishida 2023-yil 23-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudning Plenumi tomonidan “Odil sudlovni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorning qabul qilinishi ham katta ahamiyat kasb etayotganini ta’kidlab o‘tish joiz.

Ortga qaytmas islohotlar

O‘zbekiston xalqi umumxalq ovozi — referendumorqali yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilishi bilan yangi O‘zbekistonda boshlangan islohotlarning ortga qaytmaligi yaqqol tasdiqlandi. Endilikda xalqimizning ezgu istaklarini ro‘yobga chiqarishda shuni bilishimiz kerakki, eng avvalo, Konstitutsiyamizning asosiy qoidalarini yoshlarga o‘qitishni to‘g‘ri tashkil etish, ikkinchidan, yurtimizdagi yosh-u-keksa Konstitutsiyaga tayanib yashashni butun hayotimizning bosh mezoniga aylantirishga o‘z hissasini qo‘shishi lozim deb o‘ylaymiz.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilanganidan so‘ng davlatimiz rahbari tomonidan 2023-yil 8-may kuni muhim hujjat — “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon qabul qilingan edi.

Unda Konstitutsiyaning amalga oshirishga oid ko‘plab vazifalar qatorida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning so‘zsiz va to‘liq amalga oshirish, barcha ta’lim turlari va bosqichlarida Konstitutsiyaning o‘rganish bo‘yicha o‘quv reja va ta’lim dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va ularni yangi tahrirdagi Konstitutsiya norma va qoidalariga moslashtirish bo‘yicha belgilangan vazifalar mamlakatimizda o‘quvchi yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yanada yuksaltirish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Darhaqiqat, Konstitutsiyaning o‘rganish bir marotabaliq tadbir emas, u muntazam va tizimli amalga oshirilishi kerak, shunda kutilgan natijani beradi. Farmon aynan ana shu maqsadlarga xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan darsliklar bosqichma-bosqich yangilanayotgani ham quvonarli. Xususan, “Davlat va huquq asoslari” darsligi, “Konstitutsiyaning o‘rganamiz” qo‘llanmasi hamda davlat va huquq asoslari darsligini o‘qitish bo‘yicha “O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma” kitobi yangidan yaratildi. Bu jarayon davom etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davr sinovlarida sezilarli rivojlanish bosqichlarini o‘tadi, mamlakatimizda zamonaviy huquqiy asoslarni mustahkamlashda ulkan ahamiyatga ega.

Bu jarayon O‘zbekistonda ham dunyoda kechayotgan konstitutsiyaviy rivojlanish tendensiyalari — demokratiyaning rivojlanishi, inson huquqlarini himoya qilish, hokimiyatlar bo‘linishi va o‘zaro tiyib turish mexanizmi, global standartlar va ijtimoiy-ekologik masalalarga hamohang ravishda ijobiy yechim topayotganini ko‘rsatadi.

Konstitutsiyaviy islohotlarning mevasi sifatida xalqimiz irodasi bilan hayotimizga joriy etilgan ushbu noyob hujjatda aks etgan “shaxs — jamiyat — davlat” yo‘sinidagi yangi model milliy qonunchilikka keng singdirilmoqda. Ayni paytda inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri eng muhim qadriyat sifatida huquqiy amaliyotga va turmush tarzimizga keng joriy etilmoqda. Tinchlik, barqarorlik va milliy mustaqillikni har tomonlama mustahkamlash uchun yangi mazmundagi konstitutsiyaviy tuzumni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilayotir.



Oramizdagi odamlar

JAHON BOZORINI ZABT ETAYOTGAN ISHBILARMON AYOL

Prezidentimiz rahbarligida joriy yil 7-avgust kuni Navoiy viloyatida islohotlar natijadorligi va yangi rejalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda Nurota tumanidagi 10 ta mahallada 5000 dan ziyod xotin-qiz kashtachilik bilan shug'ullanib, daromad topayotgani, endi bu faoliyatni kengaytirib, 28 ta mahallada kashtachilik markazlari ochilishi rejalashtirilgani qayd etilgandi.

Davlatimiz rahbari yig'ilishda nurotalik tadbirkor Zarina Hamidova bilan onlayn muloqot qilib, hududda kashtachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha takliflarni tinglagan edi. Zarina Hamidova ayni vaqtda Prezidentimiz qo'llab-quvvatlagan takliflar asosida loyihalarini amalga oshirishga kirishgan.

Nurota azaldan nafaqat muqaddas qadamjolari, zilol chashmasi, balki hunarmandlar yurti sifatida ham dunyoga dong taratgan. Necha asrlardan buyon hudud kulollari, tosharoshlari hamda mohir kashtado'zlari xalq amaliy san'ati bardavomligini ta'minlab, sayyohlar orqali dunyo xalqlariga ham yetkazib berayotir. Zamonlar osha davom etib kelayotgan milliy hunarmandchilik san'ati avloddan avlodga o'tib kelayotgan minglab nomoddiy boyliklarimiz qatorida qadim qo'shaning o'timishi va bugungi orzu-istaklarini ifoda etadi.

Birgina kashtachilikni olsak, ayni vaqtda Nurotadagi deyarli barcha xotin-qiz bu hunarni o'zlashtirgan. Hududda xalqning hayoti va urf-odatlari bilan chambarchas bog'liq bu san'at turi qo'llig' chevarlar tomonidan asrlar osha sayqallab kelinmoqda. Nurota kashtachiligining yana bir jihati bor: ushbu san'at mazkur tumanda qadimdan ayollarning bandligini ta'minlashdek ijtimoiy ahamiyati ham kasb etgan. Hunarning sir-sinoati buvidan nabiraga, qaynonadan kelinga o'tib kelgan. Eng go'zal urf-odatlardan yana biri shuki, har bir oilada so'zana va kashta mavjud. Kichik yoshli qizdan yoshi katta ayollargacha — barcha so'zana va kashta tikish ko'nikmasini egallagan.

Zarina Hamidova ham yoshligidan ushbu hunarni o'rganib, mohir kashtado'z bo'lib yetishdi. Buyurtmalari ko'paygach, kashtado'zlik bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ydi. Dastlabki yillarda tumandagi 10 xotin-qiz bilan ish boshladi. Nurota kashtalari va so'zanalarining xaridori ko'p. Ayniqsa, mohir hunarmandlar tayyorlagan bo'lsa, buyurtmachilari tez ko'paydi. Aynan shu jihat Zarina Hamidovanning faoliyati yanada kengayishida muhim omil bo'ldi.

Bugun "Suzani Zarina" brendi asoschisi Zarina Hamidova aylanma mablag'i miqdori 1,5 milliard so'mga teng yirik tadbirkorlardan biridir. Korxonada faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar oyiga 2 milliondan 12 million so'mgacha daromad topmoqda.



Albatta, milliy hunarmandchilikning o'ziga xos tarixi, maktabi va uslublari mavjud. Keyingi yillarda ana shu boy madaniy merosimni asrab-avaylash, xalq amaliy san'atini yanada rivojlantirish maqsadida tegishli farmon va qarorlar qabul qilinib, sohada yangi imkoniyat va imtiyozlar yaratildi. Natijada yurtimizda milliy hunarmandchilik turlarini, kasanachilikni rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va shu asosda xotin-qizlar faolligini oshirish, ishsiz xotin-qizlar bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada Zarina Hamidovanning ishlari e'tirofga loyiq. Ayni paytda korxonada kasanachilik asosida faoliyat yuritayotgan ishchilari soni 600 nafarni tashkil qiladi. Bundan tashqari, Zarina Hamidova "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan ishsiz 90 xotin-qizning bandligini ta'minladi. E'tiborlisi, bu xotin-qizlar kasanachilik asosida o'z xonadonida ishlash bilan birga o'z jaliq yumushlari hamda farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega.

— Mahsulotlarimizni mahalliy bozordan tashqari xorijga ham eksport qilyapmiz, — deydi Zarina Hamidova. — AQSH, Turkiya, BAA, Hindiston, Qozog'iston, Tojikiston va Afg'onistondagi hamkorlarimiz bilan shartnoma imzolaganmiz. Kelgusida tumandagi "Chashma" ziyoratgohi atrofida "Kashtachilik kompleksi" tashkil qilishni rejalashtirganmiz. Ushbu taklifimni bildirganimda davlatimiz rahbari bu loyihani to'liq qo'llab-quvvatladi. Mazkur

kompleksda mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun ko'rgazmalar xonasi, tikuv xonalari, bolalar bog'chasi, go'zallik saloni va savdo xizmatlari shoxobchalari faoliyati yo'lga qo'yiladi. Ushbu loyiha orqali korxonamizdagi ish o'rinlari sonini 1000 taga yetkazish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini esa ikki barobar oshirishni maqsad qilganmiz.

Tadbirkor faoliyati davomida "ustoz-shogird" an'anasini ham davom ettirmoqda. Undan hunar sirlarini o'rgangan shogirdlari bugun mustaqil ish yuritib, muvaffaqiyatga erishmoqda. O'tgan yili 24 shogird tayyorlab, ish boshlashiga yordam berdi.

Zarina Hamidovanning tadbirkorlik sohasidagi muvaffaqiyatlari e'tibordan chetda qolmadi — davlatimizning yuksak mukofotiga sazovor bo'ldi. Prezidentimizning joriy yil 18-avgustdagi "Tadbirkorlar kuni munosabati bilan soha vakillaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga binoan Zarina Hamidova "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

— Mamlakatimizda tadbirkorlar qo'llab-quvvatlanayotgani va yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli shunday muvaffaqiyatlarga erishyapmiz. Mahsulotlarimiz xorijiy davlatlarda e'tirof etilmoqda. Kelgusida rejalarim ko'p. Ularni amalga oshirishda ushbu mukofot yanada kuch beradi. Prezidentimizning ishonchini oqlash uchun bor kuchim va bilimimni sarflayman, — deydi Zarina Hamidova.

Bugun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, milliy hunarmandchilikni rivojlantirish hamda ushbu sektorlarda ayollar ishtirokini ta'minlash masalalari iqtisodiyotimiz barqarorligining muhim shartiga aylangan. Qolaversa, bu jarayon uy bekasi maqomidagi ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish, oila va jamiyatdagi mavqei yanada mustahkamlashga yordam bermoqda. Ayni paytda nurotalik xotin-qizlarning ham birgina kashtachilik borasidagi erishgan yutuqlari, ko'p yillik tarixni sayqallab, jahon ahli e'tiborini tortib kelayotir.

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

YANGI O'ZBEKISTON

Yangi O'zbekiston bunyodkorlari

BIR TADBIRKOR MING TADBIRSIZDAN AFZAL

Buyuk Amir Temur bobomizning shunday gapi bor:

"Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir".



Mamlakatda investitsiyalarni keng jalb qilish, ish o'rinlari yaratish, aholi farovonligini oshirishga qo'shgan katta hisssasi, shuningdek, biznesda erishayotgan salmoqli natijalarimiz uchun davlatimiz rahbarining tegishli farmoyishiga ko'ra, "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni bilan taqdirlanganim menga yanada kuch-g'ayrat bag'ishladi, — deydi tadbirkor Bahodir Jo'rayev.

Qumqo'rg'on tumanida hududiy investitsiya dasturiga muvofiq, 738,7 milliard so'mlik 25 ta loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Bu davrda 1097 ta yangi ish o'rni ochish ko'zda tutilgan. Bugungi kungacha esa umumiy qiymati 18,9 milliard so'mlik 28 ta hududiy va qo'shimcha loyiha foydalanishga topshirilib, 178 fuqaroning ish bilan bandligi ta'minlangan. Jumladan, mebel ishlab chiqarish sanoati 8,8 foiz o'shdi.

— 15 yildan buyon faoliyat yuritib kelyapmiz. Korxonamiz mebel ishlab chiqarish bo'yicha nafaqat tumanda, balki viloyatda ham peshqadam. Bu yerda 33 nafar yosh mehnat qilmoqda. Ularning aksariyati "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turadi. Bugun bu yerda 50 turdan ortiq mebel ishlab chiqariladi. Bir yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmi esa bir milliard so'mga teng, — deydi Qumqo'rg'ondagi "Joziba mebel" xususiy korxonasi rahbari Bahodir Jo'rayevning faoliyati ham e'tirof etildi.

Yaratilgan sharoitlar, berilayotgan imtiyozlardan unumli foydalangan qumqo'rg'onlik Bahodir Jo'rayev ham mebelsozlik yo'nalishida ishlab kelyapti. Korxonada ayni paytda 60 xil mahsulot ishlab chiqarilib, nafaqat Surxondaryo bo'ylab, balki qo'shni viloyatlar hamda Tojikistonga ham eksport qilyapapti.



yangi muhit, yangi nafas va yangicha qarashlar kirib keladi. Buning natijasida hududlar iqtisodiyoti mustahkamlanib, aholi bandligi ham ta'minlanayapti.

Surxondaryolik Sherzod Anorov ham mavjud imkoniyatlardan foydalanayotgan tadbirkorlardan biri. U 2021-yilda qurilish sohasiga kirib kelgandi. Ayni paytda u tashkil etgan mas'uliyati cheklangan jamiyat tomonidan ko'p qavatli uylar, ijtimoiy soha obyektlari qurilmoqda.

— Ishbilarmon kishiga emin-erkin ishlashi uchun sharoit yaratib berilsa, uning faoliyati kengayib boraveradi. Islohotlarning ilk kunlaridanoq tadbirkorlar bilan hamfikir bo'lib, iqtisodiy qudratli, sanoati raqobatbardosh, moliyaviy tizimi barqaror, barcha sohalari investorlar uchun jozibador bo'lgan yangi O'zbekistonni barpo etishga kirishilgani bor gap. Davlatimiz rahbari yaqinda bo'lib o'tgan tadbirkorlar bilan uchrashuvda butun respublikaning biznes vakillariga o'zining chuqur va samimiy minnatdorigini izhor qildi va bayram bilan tabrikldi. Davlatimiz rahbari tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish bo'yicha qator yangi tashabbus va g'oyalarni ilgari surdiki, bu bizga katta ruh berdi. Inson o'z ishiga



mehr bilan yondashib, halol ishlasa, buning ortidan hurmat-e'tibor va baraka topishini ish faoliyatidagidan ham anglab turibmiz, — deydi "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni sohibi Sherzod Anorov.

Hozirgi paytda uning rahbarligidagi "Me'mor Inter Stroy" qurilish korxonasi tomonidan Termiz tumanidagi "Yangi O'zbekiston" massivida 16 qavatli uy-joylar qurilishi amalga oshirilmoqda. Korxona quvvati ham yil sayin ortib borayotir. Masalan, u endi o'z faoliyatini boshlagan yilda 100 nafar ishchi-xodim ishlagan bo'lsa, bugun mazkur raqam 500 dan oshdi. Qahramonimiz bu o'sishni tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishtar samarasi o'laroq biladi. Yangi taklif va tashabbuslarning tatbiq etilishi esa tadbirkorlar safini yanada kengaytirib, ular o'z faoliyatlarida erishayotgan yutuqlari bilan amalga oshirilayotgan islohotlar ro'yobini aks ettiradi.

Sarvar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Tomorqa — xazina

Yozyovon tumanidagi "Cho'liguliston" mahalla fuqarolar yig'inida umrguzaronlik qilayotgan Mirzaolim Xolmirzayev 15 sotixli tomorqasidan yilliga 4 marta hosil yetishtirib, 200 million so'mdan ortiq daromad oladi. Oiladagi tinchlik-totuvlik, to'kin hayot, farovonlik — hamjihatlikda qilingan mehnat mahsuli.



Cho'ligulistonliklar mirishkor tomorqachini "Mirzaolim dehqon" deb ta'riflaydi. Bu bejiz emas. Tomorqa egasi sarxil sabzavot ekinlar yetishtirish bilan cheklanmasdan, bu boradagi ish tajribalarini internet maqolalari orqali boshqalar bilan o'rtoqlashib boradi. "Mirzaolim dehqon" YouTube platformasida 150 mingta obunachisi bor. Unda tomorqani mavsumga tayyorlash, urug' tanlash, ekish, parvarishlash, hasharotlarga qarshi kurashish borasidagi tajribalari bilan o'rtoqlashib, tavsiyalar berib boradi.

Ayni kunlarda tomorqadagi to'rtinchi hosil

— achchiq qalampir bozorga chiqarilayapti. Tomorqada 20 ming tupdan ortiq qalampir ko'chati bor. Bir tup qalampirdan o'rta hisobda 1 kilo hosil terib olingan taqdirida ham 2 tonnadan ortiq mahsulot yetishtiriladi. Hozir bozorda bir kilo qalampirning o'rta naxsi 5 ming so'm ekani hisobga olinsa, kelayotgan daromad cho'g'ini chamalash qiyin emas.

— Tomorqa — katta xazina. Dur-u gavharlarni terib olish esa xazinabonning o'ziga bog'liq. Faqat qunt, mehnat qilinsa bas, — deydi Mirzaolim aka tomorqada yumushlari bilan

andarmon bo'lib. — Tomorqadan bir yilda to'rt marta hosil olamiz. Qalampir hosilini terib olgach, o'rniaga sarimsoqiyoz donalarini qadamyiz, ekinlar oralig'iga ismaloq separamiz. Ismaloq — ko'klam ne'mati, erta bahorda bozorga olib chiqamiz. Undan so'ng sarimsoqiyoz yetiladi. Shu yil bir kilosini 25 ming so'mdan sotdik. Bu salkam 50 million so'm daromad degani. Ko'chatlar orasida qalampir yetishtiramiz. Buning o'ziga xos xususiyati bor. Kun issig'ida ekilgan qalampir ko'chatlarining qurib qolish ehtimoli katta. Sarimsoqiyoz poyalari uni issiq harorattan saqlab, rivojlanishiga imkon beradi. Natijada hosil mo'l, sifatli bo'ladi.

Mirzaolim aka yetmish yoshni qarshilayapti, ammo keksalikka bo'yin bergani yo'q. Egatlar oralab charchamaydi. Ekinlarni parvarishlashda farzand va nabiralarga bosh bo'lib, maslahat, yo'l-yo'riq ko'rsatib keladi. Mirishkor oiladagi tomorqaning bo'sh qolgan bir qarich yeri yo'q. Qalampir ko'chatlari oralatib ekilgan makka, baqlag'on bozorga chiqarilayapti. Tomorqa chetlariga tartib bilan ekilgan jandiqli ham bozorgir. Bir kilo mahsulot ulgurji narxda 10 ming so'mdan sotilayapti.

— Mahallamizda boqimanda kayfiyatdagi oilalar, ishsiz fuqarolarni uchratmaysiz, — deydi hokim yordamchisi Avazbek Sulaymonov. — Chunki har bir oila tomorqadan unumli foydalanishga harakat qiladi. Bugungi kunda 769 ta xonadon ixtiyorida 47 gektardan ortiq tomorqa bor. Ayni kunda 158 ta xonadonda limonchilik yo'nalishida issiqxona tashkil etilgan. Bir mavsumda 700 tonnadan ortiq



Sherzod Qoraboyev olgan suratlari.

limon terib olinadi. Shu kunga qadar issiqxona tashkil etish istagini bildirgan 58 tomorqachiga 2 milliard so'm imtiyozli kredit berildi. Bundan tashqari, mehnat migratsiyasidan qaytgan ishsiz yoshlar, xotin-qizlarga ijara asosida 48 gektar ekin maydonlari ajratib berilgan. Bu yerda "Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili asosida poliz, dukkakli ekinlar ekib, daromad olinayapti.

Mahallada polizchilik yo'nalishida "Mirishkor dehqon" tomorqachilik kooperatsiyasi tashkil etildi. Bu sarxil urug', ko'chat yetishtirish, sotish va qayta ishlash

tizimini bir maqsad yo'lida birlashtirdi. Shu kunga qadar 75 nafar kam ta'minlangan va ijtimoiy himoya daftariga kiritilganlar kooperatsiya a'zolari bo'ldi.

— Ishsizligim bois, tomorqachilik kooperatsiyasiga a'zo bo'lganman, — deydi Shohista Foziljonova. — Bizga 25 sotix ekin maydoni ajratilgan. Sarxil urug', ekinlarni parvarishlash bilan bog'liq agrotexnik tadbirlarni olib borishimizda kooperatsiyaning ko'magi, qo'llab-quvvatlashi yaxshi samara berdi. Qovun-tarvuzlarini hosilga kirgan. Mahsulotlarimizni kooperatsiyaning o'zi

dala boshida sotib olyapti. Bu juda katta qulayliklar berdi. Endi men ishsizlar ro'yxatida turmayman.

Tadbirkor Nosirjon Musayevning sa'y-harakati bilan 500 tonna sig'imga ega muzlatkich qurib bitkazildi. Bu aholi tomorqasi, fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan sabzavot va poliz ekinlarini uzoq muddat saqlash, bozor talablariga mos sur'atlarda sotish imkoniyatini beradi.

Nigora Olimova tashabbusi bilan tashkil etilgan tikuvchilik tarmog'ida esa kasanachilik asosida 15 ta ish o'rni yaratildi. Duradgor Elbek Musayev 100 million so'm imtiyozli kredit hisobiga Xitoydan yog'ochga gull bosish uskunasi olib kelib, ishga tushirdi. "U.Jalilov" nomli fermer xo'jaligida chorva naslchiligi yo'nalishida qo'shimcha tarmoq tashkil etildi.

— Mahallada 9 ta oilani kambag'allikdan chiqarish choralari ko'rilmoqda. Bugunga qadar 4 ta oila kambag'allikdan chiqarildi.

— Uch nafar voyaga yetmagan farzandimning biri nogiron, — deydi Sanjar Hakimov. — O'tgan yili 20 million so'm imtiyozli kredit hisobiga sog'in sigir sotib olgandik. Chorvamiz bosh soni ko'paydi, ehtiyojimizdan organ sut mahsulotlarini sotib, daromad olyapmiz. O'zim fermer xo'jaligida ishlayapman. Bugungi kunda oilamizning iqtisodiy ahvoli tubdan yaxшилandi, farovonligimiz oshdi. Eddi biz kambag'al oila emasmiz.

Yaxshisi, imkon topib, cho'lni gulistonga aylantirgan ajib qishloqqa bir keling. Bu yerda tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, yangi tajribalarni ommalashtirish, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash yo'lida amalga oshirilayotgan hayotbaxsh islohotlarga bevosita guvoh bo'lasiz, mahalla aholining mehnatkashligi, mirishkorligiga tasannolar aytasiz.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

ENG KATTA UNVON — ISHONCH

Farida BO‘TAYEVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari,
“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” faxriy unvoni sohibi



Inson umrida shunday daqiqalar bo‘ladiki, ularning nuri yillar, asrlar o‘tsa ham o‘chmaydi, qalb qirralarida abadiy yorug‘lik bo‘lib qoladi. Men uchun ana shunday unutilmas onlarning biri Prezidentimiz qo‘lidan mukofot olish lahzalari bo‘ldi.

O‘sha soniyada yuragimda shunday tuyg‘ular gullab ochildiki, ularni so‘z bilan ifoda etish qiyin. Bu ham iftixor, ham shukrona, ham mas‘uliyat va xalqimiz oldidagi sadoqatning e‘tirofi edi. Shunday yuksak ishonch, kichik mehnatning katta e‘tirofi qalbinga cheksiz quvonch bag‘ishladi. Bu shon-shuhrat emas, adabiyotga yanada chuqurroq xizmat qilishga chaqiriqdir.

Men qo‘lmda mukofotni emas, balki butun xalqimning mehri va ishonchini tutib turganimni his qildim. O‘sha lahzada ko‘z oldimdan kechayu kunduz qilgan mehnat, ijod yo‘lidagi qiyinchiliklar, yurakdan kuyib yozilgan satrlarim kino tasmasi kabi o‘tdi. Shu on menga bitta haqiqatni yanada chuqur anglatdi: inson yuragi bilan xizmat qilsa, xalq билar va Vatan uni albatta qadrlar ekan.

Shoir yuragi har dam eli va Vatani bilan birga uradi. Shoir Vatanning yuzi, elining ko‘zi, millatning so‘zidir. Yurt ravnaqi uchun



qilinayotgan har bir sa‘y-harakat men kabi ijodkorlarga kuch, ilhom beradi. Yurtdagi tinchlik-osoyishtalik muhiti biz uchun eng ulug‘ she‘r, eng go‘zal dostonidir.

Shu kungacha 27 ta she‘riy to‘plamim chop etildi. “Qirq kokilligim”, “Iztirob ko‘ylagi”, “Tunlar isyoni”, “Ko‘zim manim...”, “O‘zimdan o‘zimgacha”, “Ushshoq”, “Tasbih”, “O‘sha kun bugundir”, “Kuzdan arazladim”, “Yaxshiyam...”, “O‘zimniki”, “Shuur”, “Men, sen, u...” va 4 jildli tanlangan asarlar to‘plami shular jumlasidan. Bundan tashqari, “Qirq qo‘shiq”, “Ayol qalbi”, “Kel, bugunni bayram qilaylik” audiokitoblarni disk shaklida chiqd.

She‘rlarim 16 ta xorijiy tillarga, ya‘ni rus, ingliz, nemis, fransuz, italyan, koreys, turk, fors, xitoy, uyg‘ur, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, tojik tillariga tarjima qilindi.

so‘zdan, ilhomdan uzilmagan qancha shoira opa-singillarimiz bor!

Ular tong otmasidan uy ishlarini ado etib, bolalariga mehr berib, kech kirganda qalaminu qo‘liga oladi. Satrlar orasiga hayotining og‘irini ham, shirinini ham qo‘shadi. Ularning har bir misrasi yurakning qonidan, orzusidan, yurtga mehridan yaratilgan.

Men olgan unvon — ana shu nurli qalblarning ham e‘tirofi. U — so‘zga ishongan, she‘rga suyanan, qalami bilan yuraklarni titratgan barcha shoiralarning munosib haqi.

Bu mukofotni qabul qilar ekanman, qalbmida shunday tuyg‘u yangradi: men yolg‘iz emasman. Orqamda minglab ijodkor ayollarimizning ilhomi, mehnati, yurak quvvati turibdi. Shuning uchun ham bu unvon — hammaniki.



NAVQIRON YOSHIMGA QAYTSAYDIM AGAR...

 **Ko‘ngilga yaqin gaplar**

Farid USMON,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi

Bugungi O‘zbekiston yoshlari – baxtli avlod. Ularning oldida barcha yo‘llar ochiq, barcha imkoniyatlar muhayyo. Ular nimani xohlasa, qaysi sohani tanlasa, davlatimiz ularni qo‘llab-quvvatlashga tayyor. Fan cho‘qqilarini zabt etaman deganlar uchun zamonaviy laboratoriyalar va kutubxonalar, san‘at va madaniyat yo‘lini tanlaganlarga ko‘rkam saroylar-u teatrlar, axborot texnologiyalari bilan shug‘ullanish istagidagilarga esa innovatsion markazlar muntazir.

Boshlanishi 1-betda

Darhaqiqat, bugun O‘zbekiston yoshlari uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar eshigi katta ochilgan. Davlatimiz rahbarining oqilona siyosati, yosh avlodga bo‘lgan yuksak ishonchi tufayli bugungi kun yoshlari bizning avlod orzu ham qila olmagan sharoitlarda kamol topmoqda. Prezidentimizning har bir chiqishida va uchrashuvida yoshlar masalasiga alohida to‘xtalib, ularning tashvish-u muammolarini tinglayotgani, orzu-istaklarini ro‘yobga chiqarish uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etayotgani bejiz emas. Zotan, jamiyatning ertangi kuni, mamlakatning qudrati aynan bilimli va vatanparvar avlod qo‘lida ekanini chuqur anglagan holda bor kuch va salohiyatni ishga solish eng to‘g‘ri yo‘ldir. Bugun yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylangani hech kimga sir emas.

Esimda, bizning davrimizda iqtidorli, bilimga chanqoq yigit-qizlar ko‘p edi, lekin ularning hammasi ham o‘z salohiyatini to‘liq namoyon eta olmasdi. Xorijda o‘qish, dunyoning eng nufuzli universitetlarida tahsil olish-ku, xayoday gap edi. Iste‘dodini jahonga ko‘rsatishga, ilmiy kashfiyot qilishga qodir bo‘lgan qanchadan qancha tengdoshlarimizning orzulari sarobga aylanganini o‘ylasam, yuragim eziladi. Bugun esa “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali minglab o‘g‘il-qizlarimiz dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida bepul ta‘lim olmoqda. Ular u yerda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallab, Vatanimiz ravnaqiga hissa qo‘shish istagi bilan yonib yashayotir. Bu katta baxt emasmi? Zero, bu yoshlarimizning kelajagi porloq, bilimi va tafakkuri teran bo‘lishining mustahkam poydevori sanaladi. Qolaversa, endilikda xorijiy oliyohqlarning o‘zi yurtimizga kirib kelayotgani, poystaximizdan tortib, viloyatlargacha nufuzli universitetlarning

filiallari ochilayotgani har qancha tahsinga loyiq.

Bugungi yoshlarning yana bir yutug‘i shundaki, ularning qalbida mehr-oqibat, saxovat va ko‘ngillilik kabi ezgu fazilatlar yanada kuchliroq jo‘sh urmoqda. Yoshlar orasida volontyorlik harakatining keng quloch yozayotganini, minglab yoshlarning hech qanday moddiy manfaat ko‘zlamay, jamiyatga foyda keltirish va atrofida qilargacha yordam qo‘lini cho‘zish yo‘lida birlashayotganini ko‘rib, ko‘nglim tog‘dek ko‘tariladi. Ular tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etishdan tortib, keksalar holidan xabar olishgacha, obodonchilik ishlaridan tortib, nogironligi bor shaxslarni qo‘llab-quvvatlashgacha bo‘lgan savobli ishlarga bosh qo‘shmoqda. Bu, albatta, yosh avlodning ma‘naviy dunyosi yuksalib

borayotganidan va ularning jamiyat dardi bilan yashayotganidan dalolat beradi.

Yoshlik shijoat va g‘ayratga to‘la davr. Bu paytda insonning yuragida ulkan orzular, katta rejarlar jo‘sh uradi. Bizning davrimizda ko‘pchilik yoshlarning orzusi biror zavod yoki fabrikaga ishga kirib, oylik maosh bilan kun kechirishdan iborat bo‘lardi. Tadbirkorlik qilish, o‘z biznesini yo‘lga qo‘yish haqida o‘ylashga ham qo‘rqardik, chunki buning uchun na sharoit, na imkoniyat bor edi. Bugun esa yosh tadbirkor bo‘laman degan yigit yoki qizga barcha eshiklar ochiq. Ular son-sanoqsiz imtiyozlar, past foizli kreditlar taklif etilmoqda. “Yoshlar daftari”, “Bir million dasturchi” kabi loyihalar orqali minglab o‘g‘il-qizlar hayotda o‘z o‘mini topib, jamiyatga naf keltirmoqda. Yoshlar sanoat



Men esa umrimning sermulo-haza faslida turib, bir narsani aniq ayta olaman: agar navqiron yoshimga qaytganimda, shubhasiz, bugungi yoshlar singari har bir lahzadan unumli foydalanib, Vatanimga yanada ko‘proq xizmat qilishga intilgan bo‘lardim. Yangi O‘zbekistonning bunyodkori bo‘lish, uning tarixida nom qoldirish imkoniyatidan to‘laroq foydalanishga urinardim.



zonalarida ishlab chiqarishini yo‘lga qo‘yib, nafaqat o‘zini, balki tengdoshlarini ham ish bilan ta‘minlamoqda. Ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlar sifati xorijnikidan qolishmasligini, hatto eksport qilayotganini ko‘rib, kishining bahri dili ochiladi. Bularning barchasi yoshlarga bildirilayotgan yuksak ishonchning amaldagi ifodasidir. Ayniqsa, AT parklarida jamlangan bilimdon yoshlarning dadil loyihalari meni har doim hayratga soladi. Ular dunyo bozori uchun dasturiy mahsulotlar yaratib, yangi O‘zbekiston nomini yuqori texnologiyalar sohasida namonitmoqda. Bunday aql-zakovatni ko‘rib, yoshligimda shunday imkoniyatlar bo‘lganida biz ham kamida bir “Kremniy vodiysi” yaratgan bo‘larmidik degan fikr xayolimdian o‘tadi.

Azal-azaldan ota-bobolarimiz dehqonchilik bilan shug‘ullanib, rizq-u ro‘zini yerdan terib kelgan. Zaminga mehr berib, undan mo‘l hosil olish qon-qonimizga singib ketgan fazilatdir. Biroq bir vaqtlar oddiy dehqonning o‘z yeriga egalik qilishi mumkin emas edi. Bugun esa yosh dehqon va fermerlarga davlatimiz tomonidan o‘ttiz yilgacha muddatga yerlar ijara asosida taqdim qilinmoqda. Bundan ham muhimi, ularga urug‘, o‘g‘it va texnika masalasida amaliy yordam ko‘rsatilib, yetishtirgan hosilini sotish uchun bozorlar yaratib berilmoqda. Bundan unumli foydalanayotgan minglab yoshlarimiz zamonaviy agrotexnologiyalarni qo‘llab, dalalaridan mo‘l hosil olmoqda, bozorlarimizni esa sarxil meva-sabzavotlar bilan to‘ldirmoqda. Ularning zahmatli mehnati tufayli yurtimiz to‘kinchiligi ta‘minlanayotgani,

YANGI O‘ZBEKISTON

Sport sohasidagi yutuqlarimiz haqida esa soatlab gapirish mumkin. Yoshligimizda mahalladagi kichik maydonchalardan boshqa sport bilan shug‘ullanadigan joylar deyarli yo‘q edi. Bugun-chi? Qishloqlardan tortib, eng chekka ovullargacha zamonaviy sport majmualari, stadionlar, basseynlar qurilmoqda. Olimpiya va Paralimpiya harakatlarini rivojlantirishga qaratilayotgan e‘tibor natijasida oddiy qishloq bolalari ham jahon chempioni bo‘lishni orzu qila oladi va bunga erishmoqda.

dasturxonlarimiz obod bo‘layotgani kishini quvontiradi, albatta.

Madaniyat va san‘at sohasiga nazar tashlasak, bunda ham yoshlarimizning iste‘dodi porlayotgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bir paytlar unutilayotgan milliy hunarmandchilik turlari — zardo‘zlik, kulolchilik bugun yosh ustalar qo‘lida qayta hayot topmoqda. Ular yaratgan noyob san‘at asarlari xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish etilib, butun dunyo ahlini hayratga solayotir. Bu bir tomondan ajdodlar merosini asrash bo‘lsa, ikkinchi tomondan mamlakatimizning sayyohlik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Musiqa va tasviriy san‘at yo‘nalishida ham yoshlarimiz katta sahnalarni zabt etayotgani, maqom va baxshichilik san‘atiga qiziqishning qayta uyg‘onayotgani kelajagimiz buyuk ekanidan darak beradi.

Sport sohasidagi yutuqlarimiz haqida esa soatlab gapirish mumkin. Yoshligimizda mahalladagi kichik maydonchalardan boshqa sport bilan shug‘ullanadigan joylar deyarli yo‘q edi. Bugun-chi? Qishloqlardan tortib, eng chekka ovullargacha zamonaviy sport majmualari, stadionlar, basseynlar qurilmoqda. Olimpiya va Paralimpiya harakatlarini rivojlantirishga qaratilayotgan e‘tibor natijasida oddiy qishloq bolalari ham jahon chempioni bo‘lishni orzu qila oladi va bunga erishmoqda. Yoshlarimizning sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Natijada o‘g‘il-qizlarimiz jahon arenalarida, Olimpiya o‘yinlarida Vatanimiz bayrog‘ini baland ko‘tarib, madhiyamizni baralla yangratmoqda. Ularning g‘alabalarini ko‘rib, butun xalqimizning qalbi faxr va iftixorga to‘ladi. Bularning zamirida ham yoshlarga qaratilayotgan ulkan e‘tibor va g‘amxo‘rlik yotibdi.

Ha, bugungi O‘zbekiston yoshlari — baxtli avlod. Ularning oldida barcha yo‘llar ochiq, barcha imkoniyatlar muhayyo. Ular nimani xohlasa, qaysi sohani tanlasa, davlatimiz ularni qo‘llab-quvvatlashga tayyor. Fan cho‘qqilarini zabt etaman deganlar uchun zamonaviy laboratoriyalar va kutubxonalar, san‘at va madaniyat yo‘lini tanlaganlarga ko‘rkam saroylar-u teatrlar, axborot texnologiyalari bilan shug‘ullanish istagidagilarga esa innovatsion markazlar muntazir. Shu o‘rinda yoshlarimizga bir ziyoli sifatida aytar so‘zim bor: bu ne‘matlarning, imkoniyatlarning qadriga yeting, aziz farzandlarim! Ulardan unumli foydalanib, nafaqat o‘zingiz va oilangiz uchun, balki shu muqaddas zamin, shu go‘zal Vatan uchun ham kamarbast bo‘ling.

Zero, har bir imkoniyat inson zimmasiga ulkan mas‘uliyat ham yuklaydi. Yana bir muhim jihat shundaki, bugungi yoshlar mamlakatda kechayotgan islohotlarning tomoshabini emas, balki faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Ularning siyosiy-huquqiy madaniyati ortib, saylovlarda, muhim qonunlar muhokamasida o‘z pozitsiyasini dadil bildirmoqda. Yoshlar parlamentlari, mahallalardagi yoshlar yetakchilari instituti orqali ularning ovozi yuqori minbarlarga yetib bormoqda. Bu esa yangi O‘zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim omili hisoblanadi. Sizga bildirilayotgan ishonchni oqlash, ajdodlarimizga munosib voris ekaningizni isbotlash eng oliy vazifangizdir.

Har gal yoshlar bilan suhbatlashganimda, ularning ko‘zidagi o‘t, so‘zidagi shijoatni ko‘rib, kelajagimiz ishonchli qo‘llarda ekaniga yana bir bor amin bo‘laman. Ularning bilimi, dunyoqarashi biznikidan butunlay boshqacha. Ular o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘yishdan, yangiliklar yaratishdan cho‘chimaydi. Internet orqali butun dunyo bilan mulog‘atda bo‘ladi, global muammolar haqida fikr yuritadi, eng muhimi, o‘z milliyatini, o‘zligini unutmagan holda zamonaviy dunyoga integratsiyalashishni maqsad qiladi.

Muxtasar aytganda, bugungi kun yoshlariga faqat havas qilish mumkin. Ular uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rliklar beqiyos. Bundan unumli foydalanib, Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shish har bir o‘g‘il-qizning muqaddas burchidir.

Men esa umrimning sermulo-haza faslida turib, bir narsani aniq ayta olaman: agar navqiron yoshimga qaytganimda, shubhasiz, bugungi yoshlar singari har bir lahzadan unumli foydalanib, Vatanimga yanada ko‘proq xizmat qilishga intilgan bo‘lardim. Yangi O‘zbekistonning bunyodkori bo‘lish, uning tarixida nom qoldirish imkoniyatidan to‘laroq foydalanishga urinardim.

Vatanimiz mustaqilligi abadiy bo‘lsin, yoshlarimizning parvozi esa yanada yuksalaversin!

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-846.
34930 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Sardon Tolliboyev
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etiladi.
Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.